XALQ DEPUTATLARI NARPAY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 17-fevral VII-5-15-7-98-K/25 Narpay tumani

Xalq deputatlari Narpay tuman Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Narpay tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-82-120-7-98-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 147-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida va bu boradagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining 2025-yil 6-fevraldagi 02-02/646-sonli bildirgisi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 16-dekabrdagi 01/01-33/863-sonli xulosalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Boliyev) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Narpay tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-82-120-7-98-K/23-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Narpay tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-82-120-7-98-K/23-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-82-120-7-98-K/23-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin;

3. Narpay tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Narpay tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Ruziyev) tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

Shuningdek, mahalliy byudjetlar rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Namazov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Boliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



SAMADOV SHUKRAT JO‘RAQULOVICH

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 17-fevraldagi
VII-5-15-7-98-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining Narpay tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**115 661 393,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	30 821 000,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	7 088 900,0
3	Aksiz solig‘i, jami	7 622 400,0
	shu jumladan:	
	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*7 622 400,0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 773 800,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16 109 000,0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 279 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 738 000,0
8	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 524 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	10 129 140,0
10	Aylanmadan olinadigan soliq	8 493 000,0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	67 153,0
12	Yig‘imlar	3 016 000,0

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 17-fevraldagi
VII-5-15-7-98-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	2024-yil
Narpay tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**270 515 015,0**
1	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	62 344 151,3
2	Tuman Tibbiyot birlashmasi	109 565 487,1
3	Tuman Madaniyat bo‘limi	9 956 262,1
4	Sport bo‘limi	6 206 008,6
5	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 867 597,6
6	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo'limi	4 979 844,9
7	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 265 221,4
8	Tuman soliq inspeksiyasi	4 936 013,2
9	Tuman hokimligi	54 999 206,3
10	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narpay tumanidagi muassasalar	627 481,8
11	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	239 947,0

12	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi	5 707 692,4
13	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi	3 820 101,3

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 17-fevraldagi
VII-5-15-7-98-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Narpay tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
	Narpay tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami	**2 592 126,8**	**-2 592 126,8**
1	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi		-127 613,1
2	Tuman Tibbiyot birlashmasi		-1 893 609,5
3	Tuman Madaniyat bo‘limi	75 191,8	
4	Sport bo‘limi	212 727,8	
5	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 037 229,5	
6	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo'limi		-382 067,6
7	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	367 900,8	
8	Tuman soliq inspeksiyasi		-166 816,2
9	Tuman hokimligi	382 209,1	
10	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narpay tumanidagi muassasalar		-16 963,4
11	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati		-5 057,0
12	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi	264 523,2	
13	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi	252 344,5	